

## TUMAN AEROPORTI HUDUDIGA “YASHIL MAKON” LOYIHASI DOIRASIDA TUT KO’CHATLARI O’TQAZILDI



### **Tuman aeroorti hududiga “yashil makon” loyihasi doirasida tut ko’chatlari o’tqazildi**

So’x tumanida “yashil makon” umumimilliy loyihasi doirasida belgilab bergen topshiriqlarni aniq reja asosida amalga oshirishga doir tizimli va keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo’jaligida foydalanmaydigan hududlar va qishloq xo’jaligi ekin yer maydonlarining bo’sh hududlarida yangi bog’ va daraxtzoralar barpo etishga doir amalga oshirilayotgan ishlar e’tirofga loyiq.

Bugun ijtimoiy soha rahbarlari va ushbu tizim xodimlari hamda Yoshlar ishlari Agentligi So’x tumani bo’limi hamkorligida tuman aeroporti hududida “yashil makon” loyihasi doirasida tut ko’chatlari ekildi. Mazkur yumushda barcha tizim vakillari faoliylik bilan ishtirok etdilar.

Tuman aeroporti hududidagi 1 hektar yer maydoniga lavanda o’simligi ham ekilgan. Aynan ushbu hududning bo’sh turgan maydonlariga bugun 2 500 to’p tut ko’chatlari o’tqazildi.

**So’x tumani hokimligi Axborot xizmati**





**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-23 14:51:01